



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar

VI-56-1-4-0-K/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyatida yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429- va 437-moddalariga muvofiq hamda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlarining bildirgan fikr va takliflarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyatda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig'i stavkalarini belgilash yuzasidan viloyat davlat soliq boshqarmasi boshlig'i Sh.Nisbatxonovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat Moliya bosh boshqarmasi (F.Yusupov), viloyat davlat soliq boshqarmasi (Sh.Nisbatxonov)ga:

- O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasida Qashqadaryo viloyati bo'yicha qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun **32,0 mln.so'm** hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun **286 so'm** bazaviy soliq stavkalari bo'yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda yer solig'i

stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Qashqadaryo televideniya bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televideniya orqali ommaga taqdim etish;

- belgilangan yer solig'i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko'cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llashlari yuzasidan ma'lumotlarni ta'minlab berish;

- tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to'lovchilarga ma'lumot uchun yetkazilishini ta'minlash;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o'z vaqtida va to'liq to'lab borishlarini nazoratga olish;

- yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig'i va undirilgan soliqlari to'g'risida xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari 1-ildovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati (N.O'tagonova) va viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (A.Sodiqov) mazkur qarorni rasmiy veb-saytlarga joylashtirilishini ta'minlasin.

5. Xalq deputatlar Qashqadaryo viloyati Kengashining 2022-yil 7-yanvardagi "Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishiga qarab yer solig'i stavkalarini belgilash to'g'risida"gi VI-38-1-4-0-K/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Azimov

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-56-1-4-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyati bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2023-yil uchun belgilangan
yer solig'i bazaviy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar**

T/P	Hudud nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig'i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkasi	
		Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so'mda)	Koeffitsient miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so'mda)
1	Qarshi shahar	1,10	35 200 000,0	1,10	314,6
2	Shahrisabz shahar	1,10	35 200 000,0	1,10	314,6
3	G'uzor tumani	0,85	27 200 000,0	0,75	214,5
4	Dehqonobod tumani	0,65	20 800 000,0	0,65	185,9
5	Qamashi tumani	0,70	22 400 000,0	0,70	200,2
6	Qarshi tumani	0,90	28 800 000,0	0,80	228,8
7	Koson tumani	0,80	25 600 000,0	0,80	228,8
8	Kitob tumani	0,80	25 600 000,0	0,80	228,8
9	Muborak tumani	0,85	27 200 000,0	0,75	214,5
10	Nishon tumani	0,85	27 200 000,0	0,75	214,5
11	Kasbi tumani	0,75	24 000 000,0	0,70	200,2
12	Chiroqchi tumani	0,80	25 600 000,0	0,75	214,5
13	Shahrisabz tumani	0,80	25 600 000,0	0,80	228,8
14	Yakkabog' tumani	0,80	25 600 000,0	0,80	228,8
15	Mirishkor tumani	0,70	22 400 000,0	0,65	185,9
16	Ko'kdala tumani	0,65	20 800 000,0	0,70	200,2